

5/2022,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00061)



HUDUDLARDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRARISH SALOHİYATIDAN FOYDALANISH YO`NALISHLARI

WU QINGHONG

Тошкент давлат иқтисодиёт университети тадқиқотчиси. Тошкент, Ўзбекистон. 1498112711@qq.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a24

Annotatsiya

Maqolada hududlarda sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning holati va undan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi. Hozirgi kunda Respublikada iqtisodiy islohotlarni olib borishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, uning omillaridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Tadqiqot davomida mamlakatimizning bir nechta hududlaridagi sanoatning tutgan o'rni statistik ma'lumotlar orqali o'rganilib kerakli tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: sanoatni rivojlantirish, kichik sanoat zonalari, investitsiya, makroiqtisodiy, iqtisodiy islohotlar, moliyaviy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot.

Аннотация

В статье изучено состояние использования производственного потенциала в развитии промышленности в регионах и возможности его использования. В настоящее время при проведении экономических реформ в республике основной задачей является обеспечение макроэкономической стабильности, увеличение размера валового внутреннего продукта, эффективное использование его факторов, совершенствование структурной структуры экономики. В ходе исследования на основе статистических данных была изучена роль отрасли в ряде регионов нашей страны и даны необходимые рекомендации.

Ключевые слова: развитие промышленности, малые промышленные зоны, инвестиции, макроэкономика, экономические реформы, финансовая устойчивость, валовой внутренний продукт.

Abstract

In the article, the state of use of production potential in the development of industry in the regions and the possibilities of its use were studied. Currently, in carrying out economic reforms in the Republic, the main task is to ensure macroeconomic stability, increase the size of the gross domestic product, effectively use its factors, and improve the structural structure of the economy. During the research, the role of the industry in several regions of our country was studied through statistical data and the necessary recommendations were made.

Key words: development of industry, small industrial zones, investment, macroeconomic, economic reforms, financial stability, gross domestic product.

Kirish

Respublikamizda qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi va milliy iqtisodiyotga investitsiyalarning keng jalb etilishi natijasida nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi,

balki iqtisodiyot tarkibida ham muhim sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi. Respublika YalMning tarmoq tarkibidagi muhim siljishlar shuni ko'rsatadiki, mazkur tarkibda qishloq xo'jaligining ulushi sezilarli darajada pasayib, sanoatning ulushi o'sib bormoqda. Jumladan, 2020 yilda YalMning tarmoq tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 32,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, sanoatning hissasi esa (qurilishni qo'shgan holda) 32,0 foizni tashkil etdi. (1-jadval)

Bugungi kunda respublikamiz sanoatini rivojlantirishda juda katta ichki hududiy salohiyatga, jumladan, mahalliy xom ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatidan samarali foydalanish dolzarb iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, "... ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo'nalishi bizning zaminimizdagi boy mineral xom ashyo va o'simlik dunyosi resurslarini chuqur qayta ishlashni bosqichma - bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo'lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakatimiz qazilma boyliklari, qurilish xomashyolari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari jihatidan boy va yuqori imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Shu asosdan ko'plab olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz tomonidan mamlakatimizda hududlar sanoatini, ularning imkoniyatlari jihatidan rivojlantirishga kata e'tibor qaratilib kelinmoqda. Shu boisdan tadqiqotimiz davomida bir nechta olimlarning izlanishlariga e'tibor qaratdik. Jumladan:

D. Sh. Raximov o'zining "Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategik rivojlantirish yo'nalishlari" nomli maqolasida "Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish nuqtai nazaridan-mintaqa sanoati raqobatbardoshligini oshirish, o'z imkoniyatlari hisobiga ichki talabni qondirish, hududlararo, respublika va xalqaro bozorlar ulushini kengaytirish, sinergetika samarasini olish, resurs tejankor siyosatni ishlab chiqish, byudjet yig'imlarini ko'paytirish, moliyaviy barqarorlik va hududlar mustaqilligini ta'minlash muhim hisoblanadi." deb iqtibos keltiradi.[3]

B.B. Muhammadjonovning "O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari" nomli maqolasida "Hozirgi kunda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llaridan biri bo'lib kichik sanoat zonalari hisoblanadi. Kichik sanoat zonalari – bu tadbirkorlik subyektlarini joylashtirishga mo'ljallangan, muhandislik kommunikatsiya va infratuzilma obyektlarini, ma'lum yer maydoni yoki ishlab chiqarish maydonini o'z ichiga oluvchi hudud. Kichik sanoat zonalari ular joylashgan hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi." deb ta'kidlaydi.[4]

S.A. Sheraliyevaning "Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish" deb atalgan maqolasida hududlar sanoatini rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlar ahamiyati to'g'risida va investitsiyalarni jalb etish loyihalarining muhimligi haqida fikr yuritadi [5].

Shuni yodda tutish kerakki hududlar sanoatini rivojlantirishda doim ham bir xil yo'nalish yoki sohadan foydalanish qachondir o'sha hududning kamchiliklaridan biriga ham aylanib qolishi mumkin. Bu kabi jihatlarni e'tiborga olgan holda har bir hududda turli xil imkoniyat darajasida sanoat korxonalarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada mamlakatimiz hududlari sanoatini rivojlantirishdagi ishlab chiqarish korxonalarining o‘rnini hamda ayni damdagi vaziyatni chuqurroq o‘rganildi. Bundan ko‘zda tutilgan maqsad mamlakatimiz sanoat siyosatini yaxshilash va davlatning ishlab chiqarish salohiyatini optimallashtirishdir, natijada xalqaro miqyosdagi iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatishga erishish orqali hududlar sanoatini holatini yaxshilash.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijasi, muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘shish sur‘atlarining aholi o‘shish sur‘atlaridan yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Ta’kidlash lozimki, yalpi ichki mahsulotning yillik o‘shish sur‘ati, aholining yillik o‘shish sur‘atlaridan yuqori bo‘lgandagina mamlakatda iqtisodiy o‘shish sodir bo‘ladi. Xususan, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot va yalpi sanoat mahsuloti kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘atlari mazkur talabga to‘la javob beradi.

1-jadval

Yalpi ichki mahsulotning tarmoq tarkibi¹
(jamiga nisbatan foiz hisobida)

Ko‘rsatkichlar nomi	2011	2012	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020
YaIM	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:									
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	90,8	91,4	91,7	91,8	91,4	91,2	91,3	88,5	88,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	9,2	8,6	8,3	8,2	8,6	8,8	8,7	11,5	11,2
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	19,8	19,4	19,2	19,0	18,9	18,3	17,6	34,0	32,4
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	33,3	32,8	32,4	32,4	32,6	33,0	32,9	27,9	32,0
Sanoat	26,7	26,6	26,2	25,9	25,8	25,7	25,7	22,2	26,3
Qurilish	6,6	6,2	6,2	6,5	6,8	7,3	7,2	5,7	5,7
Xizmatlar	46,9	47,8	48,4	48,6	48,5	48,7	49,5	38,1	35,6

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tendensiyalarida ayrim yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o‘shish sur‘atlariga nisbatan yalpi sanoat mahsulotining (YaSM) o‘shish sur‘atlari yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, 2019 yilda YaSMning o‘shish sur‘ati 9,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, YaIMning o‘shish sur‘ati esa, 8,0 foizni, shuningdek, 2020 yilda YaSMning o‘shish sur‘ati 8,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, YaIMning o‘shish sur‘ati esa 8,1 foizni tashkil etdi (2.1-rasm).


Qaralayotgan davrda YaIMning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 8,1 foizni, YaSMning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 7,8 foizni hamda SQQning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati esa 5,0 foizni tashkil etdi.

Statistik tahlillarga ko‘ra, 2011 yilda YaSM va YaIMning o‘shish sur‘atlari teng bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich respublikada 8,5 foizni tashkil etgan. 2012 va 2014 yillarda YaIMning yillik o‘shish sur‘atlari YaSMning yillik o‘shish sur‘atlariga nisbatan mos ravishda 1,9 va 0,3 foizlarga

¹ Ўзбекистон Республикаси йиллик statistik тўплами 2010-2020

Тошкент - 2021. - 35 б.

ortiq bo'ldi. 2019 yilga kelib yana YaSMning o'sish sur'ati YaIMning o'sish sur'atidan 0,2 foizga ortib ketdi. 2020 yilda esa mos ravishda yalpi ichki mahsulot 5,1 foiz, yalpi sanoat mahsuloti 14,4 foiz va sanoatda yaratilgan qo'shilgan qiymatning qo'shimcha o'sish sur'atlari 10,6 foizni tashkil qilgan. Bu esa o'z navbatida yalpi sanoat mahsuloti qo'shimcha o'sish sur'ati yalpi ichki mahsulot qo'shimcha o'sish sur'atidan 9,3 pukt ortiq o'sganligini anglatadi.



1-rasm. Yalpi ichki mahsulot, yalpi sanoat mahsuloti va sanoatda yaratilgan qo'shilgan qiymatning qo'shimcha o'sish sur'atlari²

Ikkinchi tomondan shu narsa ma'lumki, sanoat tarmog'ida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat o'sish sur'atlarining mamlakat YaIM o'sish sur'atlaridan past bo'lishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat o'sish sur'atlarining sanoat ishlab chiqarishdagiga nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi.

So'nggi yillarda hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinib, maqsadli hududiy dasturlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur ishlarining mantiqiy davomi sifatida 2020 yilning yanvar oyida "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari axborot-tahlil departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilingan bo'lsa, joriy yilning fevraliga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF- 4947-sonli farmoni bilan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" qabul qilindi.[1] Ushbu strategiyaning aynan uchinchi yo'nalishi 3.5 bandida "Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish" masalasi ko'zda tutilgan bo'lib, bunda mintaqalar sanoatini barqaror rivojlantirish, yangi sanoat korxonalarini qurish, eksport va sanoat salohiyatini oshirish orqali mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirishga qulay shart - sharoitlar yaratish kabi qator ustuvor vazifalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishini shuningdek, O'zbekistondagi korporatsiyalarning muhim ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi, ular: xususiy va davlat korxonalari, korporativ tashkilotlar va davlat tashkilotlari va korporatsiyalarning o'zi. Bundan tashqari, har bir tashkilotni qisqacha baholaydi va ularning O'zbekistondagi iqtisodiy vaziyatni rivojlantirishdagi rolini baholaydi.[6]

Ta'kidlash joizki, hududlarda sanoatni barqaror rivojlantirish masalasi mamlakat uchun doimo muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etib kelgan. So'nggi paytlarda korporativ boshqaruvning ahamiyati oshdi. Aniqrog'i, korporativ boshqaruvning muhim jihatlari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb ishoniladi. Korporativ boshqaruvning ahamiyatini oshirishga turtki bo'lgan sabablardan biri xususiylashtirishdir. Hozirgi kunda ko'pchilik firmalar kapital olish uchun davlat sektoriga murojaat qilmoqdalar va sherikliklarning aksariyati o'zlarining biznes mulklarini korporatsiyalarga aylantirmoqdalar. Korporatsiyaning rivojlanishi va muhim ahamiyatini tushuntiruvchi ikkinchi muhim sabab texnologik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lishi mumkin.[7] Chunki, mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan hududiy sanoatni rivojlantirishga bevosita bog'liq bo'lib, hududiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, hududlarda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda mo'ljallangan hududiy prognoz parametrlariga erishish kabi vazifalarni amalga oshirishda hudud sanoatining salohiyatidan samarali foydalanish qo'yilgan maqsadga tezroq yetishish imkoniyatini beradi.

Xulosa va takliflar

Ko'p sonli tadqiqotlarda qayd etilishicha, sanoat iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi va aksariyat tadqiqotlardagi mazkur fikr, aynan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan sanoatda innovatsiya va bilimlarning yangi kombinatsiyasidan foydalanish imkoniyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi, natijada iqtisodiy o'sish ta'minlanadi. Sanoat tarmog'ining dinamikligi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari rivojlanishiga ham sezilarli darajada ijobiy ta'sir etadi. Xususan, sanoatning oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari rivojlanishi qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik sohaslarining rivojlanishini rag'batlantiradi. Qayta ishlovchi sanoatning rivojlanishi xizmatlar sohasining rivojlanishiga ham kuchli ta'sir etadi.

Hududlarda qayta ishlash sanoati quyi darajada rivojlangan bo'lib, bir tomondan, hududlar bo'yicha tarmoqlarning rivojlanishi va joylashuvi muvozanatlashmagan bo'lsa, boshqa tomondan bir yoqlama, diversifikatsiyalashmagan sanoat ishlab chiqarishi (paxta tozalash, oziq-ovqat va yoqilg'i sanoatiga ixtisoslashuv) shakllangan.[2] Viloyat hududlarining bir - biridan va markazdan uzoqda joylashganligi, infratuzilma ta'minotining yuqori darajada emasligi, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalash jarayonining sustligi va asosiy fondlarning eskirishi kabi bir qator salbiy omillar viloyatda mavjud bo'lgan boy tabiiy resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Natijada ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishga tushirmasligi, aholining asosiy iste'mol tovarlarga bo'lgan ehtiyoji bilan ishlab chiqarishning muvofiq emasligi, ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotlarning yetarli darajada raqobatbardosh emasligi va eksportga yo'naltirilmaganligini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham viloyat sanoatini o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish dasturlarini puxta ishlab chiqish va bunda yuqoridagi muammolarni hisobga olish talab etiladi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 martdagi “2015 - 2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta‘minlash chora - tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PF-4707-sonli Farmoni. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
3. D.Sh. Raximov. Diversifikatsiya hududlar sanoatini muvozanatli strategik rivojlantirish yo‘nalishlari. Journal of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences - 2021
4. B.B. Muhammadjonov. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari. Journal of Academic Research in Educational Sciences – Google Scholar 2022.
5. S.A. Sheraliyeva. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiya jalb etishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Journal of Academic Research in Educational Science - 2021
6. M.Amonboev. Increasing the Effectiveness of Investment Management by Introducing Corporate Governance in Joint-Stock Companies. Journal of International Business Research and Marketing 4 (5), 7-12
7. N.Rasulov, M.Amonboev. Corporate Governance and Development: The Case of Uzbekistan Journal of International Business Research and Marketing 1 (6), 31-36